

“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMI DOSTONLARI TILIDAGI MIKROTOPONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Shahzoda Yusupova

UrDU magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm dostonlari matnlarida uchraydigan toponimlar haqida fikrlar yuritiladi. Shuningdek, maqolada dostonlar tilidagi toponimlar makrotoponim va mikrotoponim kabi turlarga ajratilgan holda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: toponim, mikrotoponim, makrotoponim, topoformant, topoleksema, topoaffiks.

ANNOTATION

This article discusses the toponyms found in the texts of Khorezm epics. Also, the article analyzes the toponyms in the epic language, divided into such types as macrotoponyms and microtoponyms.

Key words : Toponym, microtoponym, macrotoponym, topoformant, topolexema, topoaffix.

Xorazm dostonlari tilida uchraydigan joy nomlarining hududiy hajmi jihatidan makrotoponim va mikrotoponimlarga ajratishda anglashilayotgan obyektning dunyo xaritasida tutgan o‘rni, egallagan territoriyasiga qarab belgilab olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Toponimik materiallarni yig‘ish geografik nomlarni tadqiq etishda dastlabki va eng muhim bosqich hisoblanadi. V.Shmelauer fikricha, “...toponimik material yig‘ish uni izohlashdan ko‘ra muhimroqdir. Chunki izohlash – nari borganda faraz yoki taxmin xolos, sidqidildan to‘plangan material esa faktadir. Ba’zan material yig‘ishning o‘zi kifoya qiladi, xulosalar esa o‘z-o‘zidan kelib chiqadi”¹. Xorazm dostonlari tilida ma’noviy jihatdan toponim guruhiba kiradigan nomlar orasida nomdan anglashilayotgan topoobyektning hajmiga ko‘ra kichikroq darajani ifodalaydigan birliklar ham ancha foizni tashkil qiladi. Bunday toponimlarni mikrotoponim atamasi qamrab oladi.

Geografik nomlarni o‘rganishda kichik, tor doiradagi kishilarga ma’lum bo‘lgan mikrotoponimlar ham muhim ahamiyatga ega. Mikrotoponimlar

¹ Хромов А.Л. Таджикская микротопонимия долин верхнего Зерафшана и Янгоба//Ономастика Средней Азии. – М., 1978. –С. 8

tevarak-atrofda yashaydigan bir guruh kishilargagina ma'lum bo'lgan quduqlar, qo'rg'ontepalar, tomorqalar, bog'lar, ko'priklar kabi kichik obyektlarning atoqli otlaridir¹. Demak, kichik geografik obyektlar (o'tloq, chakalakzor, dala, jar, yashash joylari va hokazo)ning nomlari mikrotoponimlarni tashkil etadi.

Yirik obyektlarning nomlari (makrotoponimlar)dan farq qilgan holda mikrotoponimlarni ko'p hollarda dala materiallari asosidagina yig'ish, qayd etish mumkin. Bunda ularning jonli dialektal shaklini, dastlabki fonetik holatini aniq ifodalash imkoniyati mavjud.

Xorazm dostonlari tilida uchraydigan mikrotoponimlar miqdor jihatdan uncha katta bo'lmasa ham, ular ichida bog' nomlari, ko'prik, ko'shk va binolarning nomlari, shuningdek, tog'lar va g'orlarning nomlari faol qo'llanilganligini kuzatamiz. Quyida ularning ayrim xususiyatlari haqida mulohaza yuritamiz: Dostonlar tilida qo'llanilgan mikrotoponimlar sifatida qaralishi mumkin bo'lgan onomastik birliklar ichida tog' nomlari – oronimlar yetakchi o'rinni egallaydi. "Oronim yunoncha "orog" – tog' va "onoma" – nom, atoqli ot ma'nolarini anglatib, yer yuzasi relyefidagi bo'rtib, ko'tarilib chiqqan har qanday baland joylar (tog', qir, tepa, cho'qqi, dovon va boshqlar)ning atoqli oti. Toponim turi"².

"O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati"dan olingan yuqorida qoidaga ko'ra Xorazm dostonlari leksikasida oronim atamasi ostida birlashadigan o'n beshdan ortiq onomastik birliklar aniqlandi. Bunday mikrotoponimlar toifasiga: **Arg'uvon** ("Go'ro'g'li"-2, "Ahmad sardorning o'limga buyurilishi" dostoni 226-b), **Asqartog'** ("Go'ro'g'li"-2, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni 18-b), **Balotov** ("Go'ro'g'li"-2, "Nuralining yoshligi" dostoni 297-b), **Boli Hisor** ("Oshiqnoma"-3, "Yusuf va Ahmad" dostoni 69-b), **Bolomon** ("Oshiqnoma"-3, "Yusuf va Ahmad" dostoni 41-b), **Besha** ("Oshiqnoma"-3, "Yusuf va Ahmad" dostoni 127-b), **Isfa** ("Oshiqnoma"-3, "Yusuf va Ahmad" dostoni 128-b), **Lubnon** ("Go'ro'g'li"-2, "Go'ro'g'lining o'limi" dostoni 411-b), **Tur** ("Oshiqnoma'-1, "Edigo" dostoni 220-b), **Uch gumbaz** ("Go'ro'g'li"-1, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni 28-b), **O'ja** ("Go'ro'g'li"-1, "Kampir" dostoni 251,248-b), **Yulduz tog'i** ("Go'ro'g'li"-1, "Qirq minglar" dostoni 179-b) kabilarni kiritish mumkin. Shular qatori, "Oshiqnoma" turkumining 3-kitobiga kiritilgan "Yusuf va Ahmad" dostonida (152-b) **Hanqo** deb nomlangan g'or nomi ham keltirilgan.

Ularning ayrimlarini Xorazm dostonlari matnlarida qo'llanilgan o'rinalidan parchalar keltiramiz:

Go'ro'g'li der: omon-omon, Sog'inchimni aylay bayon,

¹ Қораев С. Географик номлар маъносин биласизми? –Тошкент, 1970. – Б. 193

² Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: НамДУ нашри, 2006. – Б. 63

Mudomo boshinda dumon, O'ja dog'lar joyindami? (“Go‘ro‘g‘li”-1, “Kampir” dostoni 248-b) yoki:

O'ja dog'larina chiqsam, Telmurib to 'rt yona boqsam,

Chekka jabrini man chaksam, Jonim chiqsa ozoridan. (“Go‘ro‘g‘li”-1, “Kampir” dostoni 251-b). Ayrim versiyalarda mazkur tog‘ nomining *Xo'ja tog'* varianti ham qo‘llanilganligini kuzatamiz.

Quyidagi parchada **Bolomon** oronimi qo‘llanilishini ko‘ramiz:

Bolomon tog'i der odinga saning, Yazidlar bog'ladi qo'limni maning,

Bu borishdan sira qo'r qmagil tanim, Armonim ko'p qoldi do'st-u yoronlar. (“Oshiqnoma”-3, “Yusuf va Ahmad” dostoni 41-b)

Yuqorida tilga olingan oronimlarning leksik-grammatik jihatlariga e’tibor qilinsa, ularning ayrimlari tarkibida *tog‘* leksemasi bevosita ishtirok etib, oronimning qanday obyektni nomlashini ko‘rsatib turibdi. Jumladan: *Asqartog‘, Balotov, Yulduz tog‘i* kabilar; ba’zi tog‘ nomlarida esa mazkur qism ishtirok qilmasdan nomning oronim ekanligini kontekst orqaligina ma’lum bo‘lib turishini kuzatamiz. Masalan: *Arg‘uvon, Boli Hisor, Bolomon, Besha, Isfa, Lubnon, Tur, O'ja* kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Toponimlar avvalo til hodisasidir. Shuning uchun ular til qonuniyatlariga bo‘ysunadilar. Bu narsa ularning yasalishida ham namoyon bo‘ladi. Toponimika bo‘yicha nashr etilayotgan ilmiy adabiyotlarda **topoformant** va **topoleksema** atamalari qo‘llaniladi¹. Jumladan, toponimlar derivatsiyasi, ya’ni yasalishida affikslar, mustaqil so‘zlarining birikuvi, ma’no siljishi va boshqa usullarda toponimlar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Ilmiy adabiyotlarda toponimlar yasalishida ishtirok etgan affikslar **topoaffikslar**, **topoformantlar** deb ham yuritiladi. Ular asosga qo‘silib toponimlarning qanday obyektni nomlashi, uning qandaydir o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot beradi.

Xorazm dostonlarida uchraydigan oronimlarning ba’zilarida *tog‘* ma’nosini ifodalash faqat matn orqali anglashilishi mumkin bo‘lsa, ayrimlarida *tog‘* topoleksemasi bevosita ishtirok qiladi va shu orqali tog‘ ma’nosini yuzaga chiqariladi. Xorazm dostonlarida ana shunday nomlarning qo‘llanilgan o‘rinlariga e’tiborni qaratamiz:

Bandargoh-bandargoh bellardan oshdi,

Har nechuk savdoga ko'nikkan boshdi(r),

Necha mangzil shabgir tortib yo'l yurib,

Asqar tog‘ning bag‘iriga yetishdi.

(“Go‘ro‘g‘li”-2, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni 18-b)

¹ Бегалиев Н.Б., Туробов А.М. Самарқанд топонимияси. СамдЧТИ нашри, 2015. –Б.7

Ayrim oronimlar tarkibida yuqorida tilga olib o‘tgan topoleksema mavjud bo‘lmasa-da, nom tarkibida yer relyefidan balandlik ma’nosini ifodalashi sezilib turadi. Masalan: “*Alqissa, kofirlar aytdilar: ulug‘din kichchisining bo‘yni yo‘g‘un erkan. Bularning ko‘zlarini Go‘zalshoh o‘ysun deb olib yuriy berdilar. Besh oy deganda Boli Hisor tog‘iga chiqdilar*”. (“Oshiqnoma”-3, “Yusuf va Ahmad” dostoni 69-b). Mazkur nom tarkibida ishtirok qilayotgan *bol//bolo* formanti baland, yuqori ma’nolarini anglatadi¹. Shu sababdan, oronimning qanday obyektni nomlab kelayotganini anglash uchun kontekstning ahamiyati sezilmaydi.

Shuningdek, *Uch gumbaz* oronimi yuzasidan ham xuddi shunday fikrlarni aytishimiz mumkin. Nom tarkibidagi gumbaz topoleksemasi balandlik ma’nosiga ishora qilib turibdi. Quyidagi parchada ana shu nomning qo‘llanishini kuzatamiz: “*Shunnan keyin bularning izinda ot-pot go‘rinmadi, Ravshanbek otni boshini Uchgumbaz dog‘ina qarab buravardi*”. (“Go‘ro‘g‘li”-1, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni 28-b).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xorazm dostonlari onomastik tizimini ma’noviy guruhlarga bo‘lib tadqiq qilish muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm dostonlari onomastik tizimida toponimlar (joy nomlari) o‘zining ko‘lami, qo‘llanish tamoyillari bilan alohida o‘rinni egallaydi. Dostonlar leksikasidan o‘rin olgan toponimlarning ifodalayotgan obyektiga ko‘ra makrotoponim va mikrotoponim turlariga ajratish mumkin. Mikrotoponimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, geografik nomlar sistemasida tutgan o‘rnini aniqlash, ularni yozib olish, ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘zbek toponimiyasida bu borada anchagina ishlar qilingan bo‘lsa-da, bugungi kun talablari va imkoniyatlari darajasida emas. Tadqiq qilingan mikrotoponimlar geografik nomlarning shakllanish jarayoni haqida qimmatli ma’lumotlar berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Abdusamatov M va boshqalar. *Forscha-o‘zbekcha lug‘at*. –T. Fan, 2006. –B. 67 2015. –Б.7
2. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган: НамДУ нашири, 2006. – Б. 63
3. Қораев С. Географик номлар маъносии биласизми? –Тошкент, 1970. –Б. 193
4. Хромов А.Л. Таджикская микротопонимия долин верхнего Зерафшана и Янгоба//Ономастика Средней Азии. –М., 1978. –С. 8

¹ Abdusamatov M va boshqalar. *Forscha-o‘zbekcha lug‘at*. –T. Fan, 2006. –B. 67